



ANALYSIS OF THE WORK “QUNYATUL FATOVO” BY NAJMIDDIN MUKHTOR IBN MAHMUD ZOHIDIY

Karamatdin Najimatdinov

PhD Student

Karakalpak State University

E-mail: talibiilim454@gmail.com

Nukus, Karakalpakstan

ABOUT ARTICLE

Key words: Zohidiy, Qunyatul Munya, Hanafi fiqh, fatwa, Khwarazm Hanafi school, Mu‘tazila, source studies, Old Khwarazmian language.

Received: 11.12.25

Accepted: 12.12.25

Published: 13.12.25

Abstract: The article analyzes the structure, source-critical features, and scholarly significance of the 13th-century work *Qunyat al-Munya li Tatmīm al-Ghunya* by the Khwarazmian jurist Najm al-Din Mukhtar Zahidī. The study examines the author’s use of symbolic abbreviations, Old Khwarazmian linguistic elements, and manuscript tradition. The work’s contribution to Islamic jurisprudence and the Khwarazm Hanafi scholarly tradition is also evaluated.

NAJMIDDIN MUXTOR IBN MAHMUD ZOHIDIYNING “QUNYATUL FATOVO” ASARI TAHLILI

Karamatdin Najimatdinov

Qoraqalpog‘ davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: talibiilim454@gmail.com

Nukus, Qoraqalpog‘iston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Zohidiy, Qunyatul munya, hanafiy fiqhi, fatvo, Xorazm fiqh maktabi, mo‘tazila, manbashunoslik, qadimgi Xorazm tili.

Annotatsiya: Maqolada Najmiddin Muxtor Zohidiy (XIII asr) qalamiga mansub “Qunyatul Munya li tatmimil G‘unya” asarining tarkibi, manbashunoslik xususiyatlari va ilmiy qiymati tahlil etiladi. Unda muallifning rumuzlarga asoslangan sitata berish uslubi, qadimgi Xorazmiy til unsurlarining qo‘llanishi hamda qo‘lyozmalari haqida ma‘lumotlar berilgan. Asarning Islom huquqshunosligi va Xorazm fiqh maktabidagi o‘rni asoslab beriladi.

АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «КУНЬЯТУЛЬ ФАТОВО» НАДЖМИДДИНА МУХТОРА ИБН МАХМУДА ЗАХИДИЯ

Караматдин Наджматдинов

Докторант

Каракалпакского государственного университета

Электронная почта: talibiilim454@gmail.com

Нукус, Каракалпакстан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: Захидий, «Куньят аль-Муния», ханафитский фикх, фатва, хорезмийская школа фикха, мутазила, источниковедение, древнехорезмийский язык.</p>	<p>Аннотация: В статье анализируются структура, источникиведческие особенности и научная ценность труда XIII века хорезмского учёного Наджмиддина Мухтара Захидия «Куньят аль-Муния ли татмим аль-Гуния». Рассматриваются система рамузов, использование древнехорезмийских языковых элементов и рукописей. Обосновывается значение произведения для исламской правовой науки и Хорезмской школы фикха.</p>
--	--

Kirish. Arab tilidagi “fatvo” so‘zi aslida “murakkab savolga javob berish” ma’nosini anglatadi. Istilohiy ma’noda esa fatvo – savol so‘ragan shaxsga dalillarga tayanib shar’iy hukmni bayon qilish demakdir.

Islom ilmiy an’analarning ilk davrlarida fatvolar asosan og‘izaki tarzda rivoyat qilinlar, faqihlarning o‘z javoblari yozma shaklda ko‘p tarqalmas edi. Keyinchalik ilm toliblarining o‘zlari uchun muhim masalalarni daftarlariga qayd eta borishi natijasida fatvo yozish jarayoni asta-sekin rivojlandi. Islom olamida ilmni yozma shaklda tartibga solish kengaya borgach, fatvolarga bag‘ishlangan alohida asarlarga ehtiyoj tug‘ildi.

Har bir mazhabning qancha faqihi, muftiysi bo‘lsa, ularning hammasi o‘zlarining fatvo to‘plamlarini tuzgan deyilsa, mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Binobarin, hanafiy mazhabidagi taniqli va obro‘li ulamolarning barchasi fatvo to‘plamlari tuzgan [1, B. 181].

“Fatvoi Abil Lays”, “Xizonatul Fatovo”, “Fatvoi Qozixon”, “Fatvoi Tatarxoniy”, “Fatvoi Bazzoziya”, “Fatvoi Olamgiriya”, “Javohirul Fatovo”, “Xulosatul Fatovo”, “Fatvoi Sirojiyya” kitoblari hanafiy mazhabidagi mashhur fatvo kitoblaridir. “Qunyatul fatovo” nomli asar ham ana shunday fatvo kitoblari sirasiga kiradi.

“Qunyatul fatovo” – Xorazm hududida shakllangan fiqhiy merosning muhim yodgorliklaridan biridir. Asar o‘rta asrlarda qozilar, muftiylar va huquqshunoslar faoliyatida qo‘llanilgan amaliy fatvo to‘plamlaridan bo‘lib, unda turli ijtimoiy-huquqiy masalalarga berilgan

javoblar jamlangan. Asarning ahamiyati shundaki, unda Xorazm vohasiga xos bo'lgan mahalliy huquqiy amaliyot, ayrim qadimiy til unsurlari va o'ziga xos fiqhiy yondashuvlar aks etgan.

Kitob muallifi Najmiddin Muxtor Zohidiy bo'lib, alloma XIII asrda yashab ijod qilgan mashhur hanafiy fiqhshunos va mutakallim hisoblanadi. Uning to'liq ismi – Abu Rajo Najmiddin Muxtor ibn Mahmud ibn Muhammad az-Zohidiy al-Xorazmiy al-G'azminiy [2, B. 164].

Manbalarda uning tug'ilgan sanasi aniq qayd etilmagan. Zohidiy Xorazmning G'azmin degan joyida tavallud topgan bo'lib, ilmiy faoliyatining muhim qismini Jurjoniya'dagi ilmiy markazlarda olib borgan. Alloma “ar-Risalatu-Nosiriyya” asarini yozib tugatganidan keyin 1260-yili 3-iyunda (hijriy 658-yil 21-jumadul oxir) vafot etgan [3].

Tadqiqotning usullari. Mazkur tadqiqot quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlarga tayanadi:

1. Tarixiy tahlil. XII-XIII asrlardagi Xorazm hududidagi fiqh faoliyati va ijtimoiy-siyosiy sharoit baholandi.
2. Manbashunoslik tahlili. Asarning qo'lyozma nusxalari (O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari) o'rganildi.
3. Matnshunoslik yondashuvi. Asarda qo'llanilgan rumuzlar, ularning kelib chiqishi va fiqh manbalariga ishoralari tahlil qilindi.
4. Adabiyotlar sharhi. Ahmad Zakiy Validiy, Shukru O'zen, D.N.Makkenzi, S.L.Volin va Abdulhay Laknaviylarning tadqiqotlari o'rganildi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy ilmiy xulosalar aniqlandi:

1. Asarning tuzilishi va manbaviy asoslari
“Qunyatul Munya” “Munyatul Fuqaho” asarining qayta ishlangan, ixcham va amaliy variantidir. Muallif asarda 40 dan ortiq fiqh kitoblarini rumuzlar orqali qisqa ko'rishda keltirgan. Rumuzlar alifbo tartibida sharhlangan bo'lib, hanafiy fiqh manbalarini tez topishga qulaylik yaratgan.
2. Xorazmiy til unsurlarining qo'llanishi
Qo'lyozmalarda 3000 dan ortiq Xorazm tilidagi so'z va iboralar uchraydi. Ularning oldidan “bil-xovarizmiyya” belgisi qo'yilgan (بالخ). Bu materiallar qadimgi Xorazm tilining eng yirik yozma manbalaridan biri hisoblanadi.
3. Qo'lyozma an'anasining kengligi
Asarning o'nlab qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lib, ularning 15 tasi O'zbekiston Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Nusxalar matnida farqlar mavjud bo'lib, bu asarning uzoq vaqt davomida ilmiy muomalada bo'lganini ko'rsatadi.
4. Asarning fiqh ilmiga ta'siri

Asar hanafiy fiqhda keng qo'llanilgan, undan "Bug'yatul-Qunya" kabi hosila asarlar yaratilgan. Zohidiyning mo'taziliy e'tiqodida bo'lishiga qaramay, fatvo masalalaridagi ilmiy yondashuv hanafiy ulamolari tomonidan qabul qilingan.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, "Qunyatul Munya" Zohidiy yashagan ijtimoiy-siyosiy sharoitning qiyinchiliklariga qaramay, fiqh ilmining amaliy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan. Mo'g'ul istilosi oqibatida fiqh olimlari kamaygan bir davrda bu asar amaliy fatvo adabiyotini tiklashda muhim manba bo'lgan.

"Qunyatul fatovo" ning to'liq nomi "Qunyatul munya li tatmimil g'unya" bo'lib, "Yetarlilikni to'ldirish uchun istak-maqсадga egalik qilish" degan ma'noni bildiradi. Asar manbalarda "Qunya", "Qunyatul munya", "Al-fatovo Zohidiyya" nomlari bilan yuritiladi [1, B. 228].

Muallif kitobning muqaddimasida bu asarning yozilish sababi haqida to'xtalib o'tgan: "Insoniyat faqihlaridan fazl belgilari xoli bo'lganida, shar'iy hodisalarning sodir bo'lishi ko'payganida, zolimlar qilichlaridan omon qolgan tolibi ilmlar va ummat boshiga katta musibat bo'lgan bu fitnadan keyin paydo bo'lgan avlod shar'iy masalalarning javobini bilishga, shar'iy hukmlarda to'g'risini xatosidan ajratishga muhtoj bo'lganida "Munyatul fuqaho" kitobidan mag'izini saralab oldim va uning javoblarini boshqa kitoblarning uslubida tahrir qildim va uni "Qunyatul munya li tatmimil g'unya" deb nomladim. Yengil va muxtasar bo'lishi uchun unda iqtibos keltirilgan fiqhiy kitoblar va muftiyar ismini avvalgi harfi yoki boshqa kitoblardan farqlanadigan jumlar bilan ramziy ishora berdim [4, B. 6].

Darhqiqat, muallif yashagan davr Xorazmshohlar davlati inqirozga yuz tutgan, mo'g'ullar bosqini sabab shaharlar vayron etilib, musulmonlar qirg'inbarot qilingan, olimu ulamolar qatl etilib, surgun qilingan, kitoblar yoqib yuborilgan davr edi.

Islom geografiyasi mo'g'ul bosqini ostida qolgan, faqihlar soni esa kamaygan bir davrda, yechimini kutayotgan ko'plab yangi fiqhiy masalalar paydo bo'lgan edi. Ana shunday sharoitda, bu masalalarga yechim topish va zamon ehtiyojlariga javob berish maqsadida Imom Zohidiy o'zining ustoz Faxriddin Badi'ning "Munyat al-fuqaho" nomli asarini ixchamlashtirib, qayta tartibga soldi. U asardagi ham mavjud, ham mavjud bo'lmagan fiqhiy masalalarga oid savol va javoblarni keng qamrovda jamladi hamda mazkur asarning mohiyatini o'zida mujassam etgan "Qunyatul munya li tatmimil g'unya" nomli yangi asarni yaratdi [2, B. 177].

Muallifning rumuzlardan foydalanishi — hanafiy fatvo adabiyotida keyinchalik keng tarqalgan yangicha uslubdir. Bu metod asar mazmunini ixchamlashtirib, ilm toliblari uchun qulay shakl yaratgan.

"Munyat al-fuqaho" asarida ochiq tarzda keltirilgan mualliflar va ularning asarlari "Qunyatul munya" da rumuzlar (shartli qisqartmalar) bilan ifodalangan. Muallif buni kitob

muqaddimasida aytib o'tgan: "Yengil va muxtasar bo'lishi uchun unda iqtibos keltirilgan fiqhiy kitoblar va muftiylarning ismlarini avvalgi harflari yoki boshqa kitoblardan farqlanadigan jumlar bilan ramziy ishora berdim" [4, B. 6].

Ushbu rumuzlarning izohlari esa asar boshida alifbo tartibida keltirilgan. Quyida ulardan ba'zilarini misol tariqasida keltiramiz:

اصغر – "Al-Jome al-asg'ar", بق – "Baqqoliy", بز – "Bazdaviy", تح – "Tuhfa", حص – "Al-Jome sag'ir", ذ – "Zaxira", شح – "Shamsu aimma Halvoniy", طح – "Tahoviy", ع – "Uyun", فتح – "Fatovoi Xoharzoda", فث – "Fatovoi Abul Lays", قخ – "Qozixon", قد – "Quduriy", ن – "Navozil", يف – "Yatimmatud dahr fiy fatovoil asr", ه – "Al-Hidoya" va hokazo

Muallif asarning yakuniy qismida hanafiy mazhabi imomlaridan rivoyatlar yetib kelmagan va keyingi davr olimlari tomonidan ham yetarlicha izohlanmagan ayrim masalalarga oid turli fiqhiy mavzularni (المتأخرين من جواب ولا منصوصة رواية فيها توجد لم مسائل باب) jamlangan.

Manbalarda Zohidiyning fiqhda hanafiy, aqidada esa mo'tazila mazhabida bo'lganligi tilga olinadi [5]. Mana shu jihati olimning kitobiga nisbatan e'tiborsiz manba sifatida qaralishiga sabab bo'lgan [6].

Bu masala "Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va islilohlari" kitobida batafsil yoritib berilgan: "Fiqhiy manbaning e'tibordan chetda qolishiga muallifning e'tiqodi ham sabab bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda e'tiqodi mo'taziliylikka yoki shialikka moyil kimsalar amaliyotda hanafiy mazhabida bo'lishi va hanafiy mazhabiga muvofiq fiqhiy kitob yozgan bo'lishi mumkin. Bunga misol sifatida Movarounnahrda shuhrat qozongan "Qunya" (Egalik qilish) kitobining sohibini keltirish mumkin. Uning muallifi Najmiddin Zohidiy Xorazmiy (vaf. 658/1260) mo'taziliy edi. Biroq u hanafiy mazhabida shuhrat qozongan fiqhiy manbalar sohibidir. Hanafiy fiqhi ustuvor bo'lgan mintaqalarda keng tarqalgani, deyarli ko'plab e'tiborli fiqhiy asarlarda undan foydalanilgani va iqtiboslar keltirilganiga qaramay, bu asar hanafiy ulamolari tomonidan nomarg'ub va dalillari zaif deb hisoblangan" [1, B. 213].

Lekin, shuni aytib o'tish lozimki, fiqh aqidadan alohida soha bo'lib, uning e'tiqodga aloqasi yo'qdir. Mana shuning uchun ham keyingi fiqhiy kitoblarda "Qunya"dan iqtiboslar keltirilgan, hattoki bu kitob Movarounnahrda eng mo'tabar manbalardan ekani qayd etilgan. "Hanafiy fiqhi, manbalari va islilohlari" kitobida "Risolutur Rahmoniyya"dan naql qilinib quyidagi ma'lumotlar keltiriladi:

"E'tiqodi mo'taziliylikka yoki shialikka moyil bo'lgani bilan asarlarida hanafiy mazhabining e'tiborli kitoblaridan foydalangan bo'lsa, mazhabda rad qilinmagan fatvolar chiqargan bo'lsa, e'tiqodiga qaralmasligi mumkin. Zotan fiqh amaliyotga bog'liq bo'lib, e'tiqodga aloqasi yo'q, deb qaraladi. "E'tiborsiz" manbalar qatorida sanalgan "al-Qunya" Movarounnahrda

mo'tabar manbalardan ekani qayd etilgan, hatto fiqh "al-Qunya" bilan xatm bo'lgani aytilgan" [1, B. 213].

"Al-Qunya"da xorazmlik olimlarning ba'zi fatvolarida xorazmiy tilida zikr qilingan iboralar mavjud. Mazkur so'z va iboralarning xorazmiycha ekanini bildirish uchun ularning oldidan "bil-xovarizmiyya" so'zi qisqartirilib بلخ shaklida yozilgan. Qo'lyozmada 3000 tacha Xorazm tilidagi so'z qo'llanilgan bo'lib, so'zlarga ko'rsatkichlarning qo'yilishi ularning o'qilishini osonlashtirgan [7]. Bu iboralarning barchasini Jaloliddin ibn Muhammad al-Imodiy arab tiliga tarjima qilgan. Bu tarjima Qunyaaning ayrim qo'lyozmalarining oxiriga qo'shilgan.

"Qunyatul-Munya" asari va undagi xorazmiy tiliga oid jumlar haqida dunyo ilmiy jamoatchiligi dastlab Ahmad Validiy To'g'onning bir maqolasi orqali xabar topadi. U 1936-yili Muxtor Zohidiyning "Qunyatul-Munya" qo'lyozmasi va qo'lyozma so'ngidan o'rin olgan Jaloliddin Imodiyning Xorazmiy so'zlar jamlangan lug'ati bo'yicha maqola e'lon qiladi [8].

Turk olimi Shukru O'zenning so'zlariga ko'ra: "Al-Qunya" kitobida, ayniqsa kitobdagi Xorazmlik olimlarning fatvolarida, Ahmad Zakiy Validiy To'g'onning ifodasi bilan aytganda, bugun keng ko'lamda unutilgan qadimgi Xorazm tilida qayd etilgan iboralar mavjud. Qadimgi Xorazm tilida saqlanib qolgan bir nechta matnlar orasida uchraydigan bu iboralar "G'urarush shurut va durarus sumut" asarining muallifi Jaloliddin Ahmad ibn Muhammad ibn Aliy al-Imodiy al-Fathobodiy al-Xorazmiy tomonidan arab tiliga tarjima qilingan [3, B. 83].

Rossiya FA Sharq qo'lyozmalari instituti arxivida S.L.Volinning 393 varaqdan iborat "Leningrad va Toshkent qo'lyozmalari bo'yicha xorazmiy tiliga oid materiallar" nomli tadqiqot ishi saqlanmoqda. Olim o'z tadqiqotida "Qunyatul munya" asarining 10 ta qo'lyozmasidan, shu jumladan asarning Rossiya FA Sharq qo'lyozmalari institutida saqlanayotgan C-2311, C-223, C-224 nusxalari, O'zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanayotgan 4 ta nusxasi va Tatariston ilmiy kutubxonasida saqlanayotgan nusxalaridan foydalangan [9].

"Qunyatul Munya" asari bo'yicha galdagi tadqiqot 1990-yili Devid Noyl Makenzi (1926-2001) tomonidan Hasan Amarat ishtirokida amalga oshirildi. U "Qunyatul Munya" asaridagi xorazmiycha jummalarni va Jaloliddin Imodiy lug'atidan joy olgan so'zlarni ingliz tiliga tarjima qildi. Qo'lyozmalarga batafsil va keng tavsif berdi. Nashrda fatvolarning arab va xorazmiy tilidagi matnlarini berib, xorazmiycha so'z va jummalarni sharhladi. D.N. Makkenzi nashriga "Qunyatul Munya"ning Leningrad nusxasi asos qilib olingan [10].

Jamoliddin Mahmud ibn Ahmad ibn Mas'ud ibn Abdurrahmon al-Quvnaviy (hij. 777, mil. 1375-yil vafot etgan) "Qunyatul Munya"da tez-tez uchrab turadigan, fatvo jihatidan ishonchli bo'lgan masalalarni "Bug'yatul-Qunya" sarlavhasi bilan kitob shaklida to'plagan.

Darhaqiqat, "Qunyatul Munya"ning ko'plab qo'lyozma nusxalari bugungi kunimizgacha yetib kelgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti

fondida asarning 15 ta nusxasi quyidagi inventar raqamlar ostida saqlanadi: № 5942/I, 3181, 4839, 3247, 3725, 3246/I, 4723, 3170, 2491, 4793, 8347, 7514/II, 8113, 8542, 10860/I.

Bu qo‘lyozmalar orasida nusxalarning yozilish sanasi, kotiblari, hajmi va matn variantlarida turli tafovutlar uchraydi. Mazkur nusxalar ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanib, asarning tarqalish geografiyasi, ilmiy muomalada bo‘lgan davri va Xorazm fiqh maktabining rivojlanish jarayonini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, “Qunyatul Munya li tatmimil G‘unya” asari hanafiy fiqh merosining o‘ziga xos va muhim yodgorliklaridan biri sifatida Xorazm fiqh maktabining tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Asarda XIII asrda hukm surgan murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat, mo‘g‘ul istilosi oqibatida ilmiy muhitning inqirozga yuz tutgani, faqihlar soni keskin kamaygan bir davrning fiqhiy ehtiyojlari o‘z aksini topgan. Zohidiyning “Munyatul fuqaho”ni tartibga solish, masalalarni ixcham va amaliy shaklga keltirishga uringani, mualliflar nomlarini ramziy rumuzlar bilan belgilab, fiqhiy masalalarni tizimli holda jamlagani uning asarni keng amaliy muomalaga moslashtirishga intilganini ko‘rsatadi.

Garchi muallifning aqidaviy qarashlari ba’zi ulamolar tomonidan e’tirozlarga sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, fiqh sohasining amaliy tabiatidan kelib chiqib, uning asari hanafiy fatvo adabiyotida e’tirof etilgan va ko‘plab fiqhiy manbalarda iqtibos qilingan. Bu holat fiqhiy merosni baholashda muallifning e’tiqodidan ko‘ra, asarning ilmiy va amaliy qiymati ustuvor bo‘lishi lozimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Asarda uchraydigan Xorazmiy tilidagi iboralar, ularning Jaloliddin Imodiy tomonidan arab tiliga tarjima qilinishi va qo‘lyozmalardagi lug‘aviy qo‘shimchalar mintaqa til tarixi, mahalliy ilmiy muhit va fiqhiy adabiyotlar o‘zaro aloqasini tadqiq etishda alohida ilmiy ahamiyatga ega. “Qunyatul Munya”ning ko‘plab qo‘lyozma nusxalarining bugungi kunga qadar yetib kelgani, ularning turli variantlarda saqlangani ham asarning keng geografiyada qo‘llanganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, “Qunyatul Munya” Xorazm fiqh maktabining shakllanishi, mahalliy amaliyotning huquqiy ifodasi hamda qadimgi Xorazm tilining ilmiy matnlardagi izlarini yoritishda noyob manba sifatida alohida o‘rganishga arziydi. Asarning mazmuniy boyligi, qo‘lyozmalarning xilma-xilligi va undagi tarixiy-lisoniy qatlamlar uni fiqhshunoslik, manbashunoslik va tilshunoslik tadqiqotlari uchun muhim ilmiy asosga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. H. Aminov, S.Primov. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 2017.
2. Nuretdin Adn. “Ebü’r-Recâ Necmüddîn Muhtar ez-Zâhidî’nin Hayatı ve Eserleri”. Usul İslam Araştırmaları 40 (2023).

3. Şükrü Özen. Ez-Zâhidî. TDV İslâm Ansiklopedisi 44-cild. – İstanbul: 2013. – B. 82.
4. Muxtor Zohidiy. Qunyatul munya li tatmimil g'unya. – Bayrut: Daru ihyout turosil arabiy, 2024.
5. Alouddin Ali ibn Amrulloh al-Humaydiy. Tabaqotul hanafiyya. - Bag'dod: 2005. – B. 2/216.
6. Abdulhay Laknaviy. Favoidul bahiyya fiy tarojim al-hanafiyya. – Bayrut: “Darul arqom”, 1988. – B. 349.
7. U Ibragimov, N. Qo'ziyeva. Qadimgi Xorazm tilining o'rganilish tarixi. Tamaddun nuri. 2025 (7/70).
8. Togan Z. V. Übar die Sprache und Kultur der alten Chwaresmier. ZDMG. № 90. 1936, B. 27-30.
9. A.R.Matniyozov. Qadimgi Xorazm yozma yodgorliklari. Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi, 4/2017. – B. 78.
10. A.R.Matniyozov. Qadimgi Xorazm yozma yodgorliklari. Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi, 4/2015. – B. 48.